

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNING
O'ZBEKISTON HUDUDIDAN TASHQARIDA JINOYAT SODIR ETGAN
SHAXSLARGA NISBATAN AMAL QILISHI**

Sanetullaeva Muslihim Nagmetulla qizi

E-mail: muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining O'zbekiston hududidan tashqarida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan amal qilishiga bog'liq bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: hudud, qonun, jinoyat, jinoyat qonuni, chet el hududi.

**ДЕЙСТВИЕ УГОЛОВНОГО ЗАКОНА РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН В ОТНОШЕНИИ ЛИЦ, СОВЕРШИВШИХ
ПРЕСТУПЛЕНИЯ ВНЕ ПРЕДЕЛОВ УЗБЕКИСТАНА**

Санетуллаева Муслихима Нагметулла кизи

Электронная почта: muslihimasanetullaeva41@gmail.com

Аннотация: В данном исследовании приведены ряд сведений, касающихся действия Уголовного кодекса Республики Узбекистан в отношении лиц, совершивших преступления за пределами территории Республики Узбекистан.

Ключевые слова: территория, закон, преступление, уголовный закон, территория иностранного государства.

**THE APPLICATION OF THE CRIMINAL LAW OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN TO PERSONS WHO HAVE COMMITTED CRIMES
OUTSIDE THE TERRITORY OF UZBEKISTAN.**

Sanetullaeva Muslihimaga Nagmetulla qizi

E-mail: muslihimagasnetullaeva41@gmail.com

Annotation: This study presents a number of facts concerning the application of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan to persons who have committed crimes outside the territory of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: territory, law, crime, criminal law, territory of foreign state

Jinoyat qonunining hudud bo'yicha amal qilishi – ushbu davlatning yurisdiksiyasi hisoblanadi. Jinoyat qonuni o'z davlati hududida amal qilishi bu mazkur davlat hududiy yurisdiksiyasi hisoblansa, jinoyat qonunining ushbu davlat hududidan tashqarida amal qilishi bu ekstritorial yurisdiksiya hisoblanadi. Demak ushbu ishimizda ekstritorial yurisdiksiya haqida gap ketadi.

Qoida sifatida takitlab o'tilganki, O'zbekiston Respublikasining chet el davlatidagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari hududida sodir etgan jinoyatlari O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan, deb hisoblanadi. Bunga asos sifatida O'zbekiston Respublikasi hududi sifatida respublikaning

elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari joylashgan hudud ham ko'zda tutilishini keltirishimiz mumkin, shuningdek ushbu elchixona va diplomatik vakolatxonalar mahalliy qonunchilik ta'siridan ajratilgan bo'lib xalqaro huquqning umumiy qoidalariga muvofiq ekstritorial maqomga ega bo'ladi. Shuni hisobga olib aytish mumkinki, O'zbekiston hududida joylashgan chet el davlatlari elchixona va diplomatik vakolatxonalarida sodir etilgan jinoyatlar ham o'sha davlatlar qonuniga muvofiq ko'riladi, bu haqida "Diplomatik aloqalar to'g'risida" 1961-yil 18-apreldagi Vena konvensiyasida va "Konsullik aloqalar to'g'risida" 1963-yil 24-apreldagi Vena konvensiyasida keltirilgan.

Jinoyat sodir etilgan joyni aniqlash va unga muvofiq qo'llanilishi lozim bo'lgan jinoyat qonunini tanlash odatda katta qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati qisqa muddatli bo'lib, cheklangan maydonda (masalan, kvartirada, ko'chada, bog'da va h.k.) sodir etiladi, ya'ni bir davlat hududida amalga oshiriladi. Shu sababli, agar jinoyat faoliyati uning hududida boshlangan va yakunlangan bo'lsa, jinoyat O'zbekiston hududida sodir etilgan deb hisoblanadi. Ayrim hollarda esa, amaliyotda jinoiy harakat O'zbekiston hududida sodir etilgan, ammo jinoiy oqibatlari boshqa davlat hududida yuzaga kelgan holatlar ham uchray turadi. Yoki aksincha, jinoiy harakat davlatimiz hududidan tashqarida sodir etilib, uning oqibatlari O'zbekiston hududida yuzaga kelgan holatlar ham bo'lishi mumkin (moddiy tarkibli jinoyatlar). Shu kabi holatlar yechimi sifatida Jinoyat qonunida aniq-tiniq normalar mavjud hisoblanadi.

Jinoyat qonuning 11-moddasining 2-qismida O'zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan deb topish normalari belgilangan bo'lib, unga ko'ra:

Qilmish:

- a) O'zbekiston hududida boshlangan, tamomlangan yoki to'xtatilgan bo'lsa;
- b) O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O'zbekiston hududida yuz bergan bo'lsa;
- v) O'zbekiston hududida sodir etilib, jinoiy oqibati esa, O'zbekiston hududidan tashqarida yuz bergan bo'lsa;
- g) bir necha qilmishlardan iborat yoki boshqa qilmishlar bilan birgalikda sodir etilgan bo'lib, uning bir qismi O'zbekiston hududida yuz bergan bo'lsa, O'zbekiston hududida sodir etilgan jinoyat deb topiladi.

Ushbu keltirilgan qilmish belgilari mazmun-mihiyatiga ko'ra obyektiv hisoblanib, jinoiy harakatning faqat obyektiv tomonning xususiyatlariga xos bo'ladi va jinoyat tarkibining boshqa qismlariga tegishli bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib takidlash joyiz, 11-moddaning ikkinchi qismi "b" bandida keltirilgan normani qo'llashda jinoyat tarkibining barcha alomatlarini ifodalovchi harakatlar qaysi davlatda amalga oshirilganligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ayrim holatlar mavjudki, qilmish O'zbekiston hududidan tashqarida sodir etilib, oqibati esa O'zbekiston hududida yuzaga kelsa da, javobgarlik boshqa davlat qonunchiligi asosida bo'ladi. Masalan, boshqa davlat hududidan chiqmagan turib jinoyat tarkibining barcha alomatlari sodir qilinsa (urish, do'pposlash), O'zbekistonga kelib faqat gina oqibat yuzaga kelsa (o'lim), unda javobgarlik boshqa davlat jinoyat qonuni asosida amalga oshiriladi. Agarda jinoyat sodir etish

uchun harakat (harakatsizlik), boshqa davlat hududida boshlanib, O'zbekiston hududiga kelib ham davom etib jinoiy oqibat O'zbekistonda yuzaga kelsa javobgarlik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida qo'llaniladi. Huddi shu qoidani bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun ham qo'llash mumkin, masalan, agarda ular o'z harakat (harakatsizlik)larini bir vaqtda turli davlatlarda turib sodir qilsa, ushbu guruh bajaruvchisi qaysi davlatda o'z faoliyatini amalga oshirsa o'sha davlat qonunchiligi qo'llaniladi.

Yuqorida keltirilgan qilmish belgilari mazmun-mihiyatiga ko'ra obyektiv hisoblanadi va jinoyat tarkibining barcha elementlarining obyektiv tomonini ko'rsatib beradi. Bu belgilar jinoiy harakaning obyektiv tomining hususiyatlariga xos bo'lib, jinoya tarkibining boshqa qismlariga tegishli bo'lmaydi.

O'zbekiston bayrog'i ostidagi yoki O'zbekiston portida ro'yxatga olingan havo, dengiz yoki daryo kemasida O'zbekiston hududidan tashqarida bo'lib, chet el davlati hududi hisoblanmagan joyda jinoyat sodir etilsa, bunday jinoyat uchun ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladi. Mazkur qoida zamonaviy xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normasi hisoblanib, dengiz, daryo, yoki havo kemasi sathidagi bayroq yoki port belgisi qaysi davlatga mansub bo'lsa, o'sha davlat hududidan tashqarida, lekin boshqa biror xorijiy davlat hududiga kirmagan bo'lsa, u o'z davlati hisoblanib, ushbu hududda o'sha davlat qonunlari amal qiladi.

Ayrim hollarda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat qonuni boshqa davlat suv yoki havo hududida sodir etilganda ham qo'llanilishi mumkin, lekin agarda,

qo'llaniladigan normativ-huquqiy hujjat xorijiy mamlaktning manfaatlariga zid keladigan bo'lsa, o'sha davlat qonunchiligi qo'llaniladi.

Bayrog'i ostida suzish tarkibini har qaysi davlatning o'zi belgilaydi, shuningdek, bu huquqni beruvchi tegishli hujjatni taqdim qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan xorijiy fuqarolar va fuqaro bo'lmagan shaxslar O'zbekiston qonunlarini hurmat qilishi va ularga rioya qilishi shart. Shuning uchun jinoyat sodir etilgan taqdirda ular umumiy (bir xil) asoslarda jinoiy javobgarlikka tortishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 11-moddasining 4-qismi amaldagi qonunlar, xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga muvofiq chet el fuqarolarining javobgarligi to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi sudlariga tegishli bo'lmasa, ular O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etgan holda, xalqaro huquq normalariga muvofiq hal qilinadi.

Qonun va xalqaro shartnomalarga asosan jinoyat-huquqiy yurisdiksiyadan immunitet huquqi bilan quyidagi shaxslar foydalanadilar: xorijiy davlatlarning elchilari va vakillari, ish yurituvchilari, harbiy attashelar va ularning yordamchilari, elchixona maslahatchilari va kotiblari, savdo vakillari va ularning o'rinbosarlari, kotib-arxivchilar, shuningdek, diplomatik vakillik rahbarlari va xodimlarining oila a'zolari, agar ular ko'rsatilgan shaxslar bilan birga yashasa va Rossiya fuqarosi bo'lmasa. Jinoyat yurisdiksiyasidan diplomatik immunitetga ega bo'lgan shaxslar ro'yxati 1961-yildagi Vena konvensiyasi "Diplomatik munosabatlar to'g'risida", 1963-yildagi Vena konvensiyasi "Konsullik

munosabatlari to'g'risida" hamda boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Davlatlararo kelishuvga muvofiq eksteritorial huquqdan foydalanuvchi shaxslarning doirasi kengaytirilishi yoki toraytirilishi mumkin. Ushbu qoidalar odatda milliy qonunchilikda ham o'z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
2. <https://lex.uz/>.
3. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Usmonaliyev M., Bakunov P.